

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLADA FAOLIYAT MARKAZLARINING AHAMIYATI

Tursunova Durdon

Normamatova Mavluda

To'rayeva Sadoqat

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

"Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi 1-bosqich talabalari

Anatatsiya: Ushbu maqolada bolada faoliyat markazlarining ahamiyati bayon qilingan.O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevni Maktabgacha ta`lim tashkiloti haqidagi fikri 2018-yil 30-sentabirdagi “Maktabgacha ta`lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risidagi “PQ-3955-sonli qarori, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning hikmatlar sahifasidan bolalarning ta`lim –tarbiyasiga qarata aytilgan so`zlari “Ilk qadam” o`quv dasturi “Davlat talablari” 5 ta markaz til va nutq, san`at markazi, syujetli ro`li-dramatlashtirilgan markaz, qurish yasash konstruksiyalash va matimatika markazi, Ilm –fann va tabiyat markazi

Kalit so`z: Til va nutq markazi, qurish – yasash konstruksiyalash markazi. San`at markazi, syujetli-roli o`yinlar va dramatlashtirilgan markaz, ilm-fan va tabiat markazi.

Hozirgi rivojlanib borayotgan zamonda O`zbekiston Respublikasi maktabgacha ta`lim tashkilotlarida bolalarni sifatli ta`lim hamda har tomonlama rivojlanib borishi alohida e`tiborga olinmoqda. O`zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonivich “Zamonaviy maktabgacha ta`lim sog`lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishda o`rin tutadi” deb takidlaydi.

Maktabgacha ta`lim tizimini yanada takomolashtirish bolalarning sifatli maktabgacha ta`limda teng foydalanishini ta`minlash ,maktabgacha ta`lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida shuningdek O`zbekiston Respublikasi Presidentining 2018- yil 30-sentabirdagi “Maktabgacha ta`lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora –tadbirlari to`g`risi “ dagi PQ 3955 –sonli qaroriga binoan Maktabgacha ta`lim tashkilotidagi bolalarga sifatli ta`lim- tarbiya berish, modiy taxnik bazasini mustahkamlash maktabgacha ta`limga bola qamrovini kengaytirish va mohir pedagoglar bilan taminlash imkonini yaratadi.Maktabgacha talim tashkilotidagi bolalarni ta`li-tarbiya jarayoni ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishiga qo`yiladigan Davlat talablari va”Ilk qadam davlat dasturi asosdida rejalashtiriladi. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonivich ham o`sib kelayotgan yosh avlodni ta`lim-tarbiyasiga befarq qolmagan holda “Agar mendan sizni nima qiy Naydi? ” deb so`rasangiz, farzandlarimizning ta`lim va tarbiyasi deb javob beraman” deb takitlaydi. Har bir mashg`ulot xonasida “Ilk qadam“ dasturi asosida ishlab chiqilgan multemidia tajriba- sinov dasturiga ega monitorlar o`rnatilgan. Bu

dasturdagi turli sohalarga oid suratlar , interfaol o`yinlar yordamida bolalarning bilm va ko`nikmasi shakillantiriladi.Ilk qadam dasturini ta`lim-tarbiya jarayoniga tadbiq etish, dasturni to`laqonli ishlab ketishda metodik taminot va metodik yordamning o`rni belgilab olinadi.Ilk qadam dasturi bo`yicha barcha yosh guruhida mavjud markazlar va umumiy guruhda ishlashni tashkil etishda tarbiyachining o`rni judda katta.Maktabgacha ta`lim tashkiloti pedagoglari ishchi o`quv dasturini tuzishda ota-onalarini jalb qilgan holda tuziladi.

Maktabgacha ta`lim tashkilotida bolalar “Ilk qadam “o`quv dasturi bo`yicha 5 ta markazda ish olib boriladi:

Bular quydagilar:

Qurish- yasash konstruksiyalash va matematika markazi:

Har xil qurish-yasash qurish to`plamlari – kublar, legolar, bloklar,konstruktorlar o`ynash uchun didaktik o`yinlar va boshlang`ich matematik tasavvurlarni rivojlanтиrish uchun o`quv matirallari.

Syujetli-ro`li o`yinlar va dramatlashtirish markazi :

Teatrining barcha turlari uchun atributlar va o`yin materiallari, rolli dramatik, rejissiorlik va dramatizatsiya o`yinlar, o`yin to`plamlari va burchaklarda o`ynash uchun o`yinchoqlar –masalan “sartarosh” “kasalxona o`yinlari “

Til va nutq markazi :

Didaktik o`yinlar,tematik mavzuli,katta va kichik formatdagi rasmlar,tasviriy materiallar voqealar ketma –ketligi belgilash uchun rasm seriyalari, turli mezonlarga ko`ra guruhash va boshqalar, bolalar kitoblari kutubxonasi, tematik albomlar, topishmoq albomlari, magnit harflar to`plami.

Ilm fan va tabiat markazi:

Atrof- muxit madaniyat bo`yicha didaktik materiallar ,”Tabiat va odam “rasmlari va illyustratsiyalari, valiologiya bo`yicha maketlar, tabiiy materiallarning xususiyatlarini o`rganish uchun materiallar, to`plamlar, tadqiqotlar va tajribalar uchun, bilim to`plamlari, o`ynash uchun o`yin mavzulari to`plamlari –uy va yovvoyi hayvonlar, dengiz hayoti, hasharotlar qushlar:

San’at markazi:

Tasviriy faoliyat zarur jihozlar, xalq hunarmandchilik maxsulotlari tasvir etilgan albomlar va ilyustratsiyalar, demokrativ-amaliy san’at turli xil xalqlarning hayoti, ma’daniyati, urf-odati aks ettirilgan rasmalar, bolalar yozuvchisi va O’zbekiston shoirlari portretlari, tematik rang –barang kitoblar, erkin ijod uchun rasm chizish albomlari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2018- yil 30- sentabirdagi "Maktabgacha ta'lif tashkilotini boshqarishni takomillashtirish chora –tadbirlari to`g`risidagi" PQ 3955-sonli qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 29.12.2016 yildagi PQ-2707-sodan
- 3.Ilk qadam o`quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif vazirligining 2018 –yil 7-iyuldaggi 4- sonli yig`lishi
- 4.O'zbekiston Respublikasi Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga qo`yiladigan "Davlat talablari" 2018-yil